



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 18 - yanvar

VI-52-11-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman mahalliy budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga saqlangan erkin qoldiq hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonuni va xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi "Oqdaryo tumanining 2022-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida"gi (VI-51-136-7-92-K/21-son) qaroriga asosan, shuningdek, tuman hokimining birinchi o'rinnbosari E.Ashurovning 2022-yil 12-yanvardagi 02/04-28-sonli bildirish xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o'rinnbosari E.Ashurovning 2022-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'ları hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag'lar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'ları hisobidan amalga oshiriladigan ishlar va ajratiladigan mablag'lar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Tursunov)ga, ajratilgan mablag'lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish, tuman hokimligi moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatalishini nazorat qilish yuklatilsin.
4. Tuman hokimligi moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga tuman

mahalliy budgetiga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (H.Ablaqulov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining doimiy komissiyalari (M.Ergasheva, J.Sadullaev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



Adilova D. I.

Халқ депутатлари Оқдарё туман Кенгашининг
2022 йил 18 январдаги
VI-52-11-7-92-K/22-сон қарорига
1-илюва

Tuman mahalliy budgetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag‘lar miqdori

T/R	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘mda)
1	Tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 250-sonli qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida “Temir daftar”jamg‘armasiga	628900,0
2		O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi “Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-sonli qarorini ijrosini ta‘minlash maqsadida “Yoshlar daftar” jamg‘armasiga	628900,0
3		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5020-sonli qarorini ijrosi ta‘minlash maqsadida “Ayollar daftari” jamg‘armasiga	628900,0
4		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qaroriga asosan tashkil etilgan tuman hokimining yordamchilari kompyuter va printer jihozlari sotib olish xarajatlariga	136500,0
5		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishga	1257870,0
	Jami:	x	3281070,0